

KORXONALARDA XOMASHYO TEJAMKORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Mahmudov Muslimbek

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishida korxonalarda xomashyo tejamkorligini oshirish mexanizmlarida raqamli texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda ishlab chiqarish jarayonlarida resurslardan samarali foydalanish zarurati, xomashyo sarfini kamaytirish omillari hamda raqamli boshqaruv vositalarining iqtisodiy samaradorlikka ta’siri yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: xomashyo tejamkorligi, raqamli texnologiyalar, ishlab chiqarish samaradorligi, avtomatlashtirish, ERP tizimlari, sun’iy intellekt, IoT, resurslarni boshqarish.

Hozirgi davrda raqamli texnologiyalar dunyo iqtisodiyotining deyarli barcha sohalarini tubdan o‘zgartirib yubormoqda. Ayniqsa, ishlab chiqarish korxonalari uchun raqamli transformatsiya jarayoni strategik boshqaruvni samarali tashkil etish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faqatgina yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish bilan cheklanib qolmay, balki innovatsion yechimlarni joriy etish, resurslardan samarali foydalanish va bozordagi raqobatbardoshlikni ta’minlash uchun zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanishi lozim. Raqamli texnologiyalarning ishlab chiqarish jarayonlariga joriy qilinishi korxonalarining samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va yangi bozorlarni zabt etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, strategik boshqaruvning raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirilishi korxonalar uchun tezkor qarorlar qabul qilish, ma’lumotlarni tahlil qilishda ilg‘or usullardan foydalanish va biznes jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayon global raqobat sharoitida korxonalarini yangi darajaga olib chiqadi va ularning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Bugungi kunda ishlab chiqarish korxonalarida strategik boshqaruvni takomillashtirish zarurati bir necha omillar bilan bog‘liq. Birinchidan, globallashtirish jarayonlari va raqobat kuchayishi korxonalaridan o‘z strategiyalarini tezkorlik bilan qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Ikkinchidan, bozor ehtiyojlari va iste’molchilar talabining tez o‘zgarib borishi korxonalar faoliyatida moslashuvchanlikni oshirishni talab etadi. Uchinchidan, raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan zamonaviy vositalar va platformalar strategik rejalar ishlab chiqishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlashda ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, xomashyo resurslaridan oqilona va tejamkor foydalanish korxonada faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda ishlab chiqarish jarayonlariga raqamli texnologiyalarning joriy etilishi xomashyo sarfini optimallashtirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hamda resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va nazorat qilish orqali xomashyo sarfini aniq hisobga olishga yordam beradi. Masalan, korxonalarda maxsus dasturiy ta'minot va raqamli monitoring tizimlari yordamida xomashyo kirimi, sarfi va qoldiqlari real vaqt rejimida kuzatib boriladi. Bu esa ortiqcha sarf-xarajatlarning oldini olish, ishlab chiqarish jarayonidagi yo'qotishlarni kamaytirish hamda resurslardan yanada samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini tahlil qilish va rejalashtirish imkoniyatlari ham kengaymoqda. Masalan, korxonalarda zamonaviy axborot tizimlari orqali ishlab chiqarish jarayonlari to'g'risidagi ma'lumotlar yig'ilib, tahlil qilinadi va shunga asoslanib optimal ishlab chiqarish rejasi tuziladi. Natijada xomashyo resurslaridan foydalanish darajasi oshadi va ishlab chiqarish samaradorligi ortadi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nosozliklarni oldindan aniqlash imkonini beradi. Sensorlar, avtomatik boshqaruv tizimlari va sun'iy intellekt elementlari yordamida ishlab chiqarish jarayonlari doimiy ravishda monitoring qilinadi. Bu esa uskunalarning nosozligi sababli yuzaga keladigan xomashyo yo'qotishlarini kamaytirishga yordam beradi.

Korxonalarda raqamli texnologiyalarni joriy etish logistika va ta'minot jarayonlarini ham takomillashtiradi. Xususan, raqamli platformalar orqali xomashyo yetkazib berish jarayonlari samarali boshqariladi, zaxiralar darajasi nazorat qilinadi va ortiqcha zaxiralar yig'ilib qolishining oldi olinadi. Bu esa korxonada faoliyatining uzluksizligini ta'minlash bilan birga xomashyo resurslaridan tejamkor foydalanishga xizmat qiladi.

Strategik boshqaruvni takomillashtirishda raqamli texnologiyalarning o'rni, avvalo, axborot tizimlari va tahliliy dasturlarning qo'llanilishi bilan bog'liq. Masalan, Big Data texnologiyalari va sun'iy intellekt yordamida katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali korxonaning ichki va tashqi muhitini chuqur o'rganish imkoniyati yaratiladi. Bulutli texnologiyalar esa korxonaning har xil bo'linmalari o'rtasida ma'lumot almashishni tezlashtiradi va samaradorlikni oshiradi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar yordamida biznes-jarayonlarni avtomatlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va moliyaviy xarajatlarni optimallashtirish kabi maqsadlar ham amalga oshiriladi.

Raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish korxonalarining strategik boshqaruv jarayonlariga tobora chuqurroq kirib bormoqda. Bu texnologiyalar korxonalar faoliyatini optimallashtirish, samaradorlikni oshirish va raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim

Xulosa qilib aytganda raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish korxonalarini uchun strategik boshqaruvni yangi bosqichga olib chiqishda muhim rol o'ynamoqda. Bu texnologiyalar yordamida korxonalar nafaqat hozirgi bozorda o'z pozitsiyalarini mustahkamlashi, balki kelajakda yangi innovatsion imkoniyatlarni ochib berishi ham mumkin. Shu sababli, korxonalar raqamli transformatsiyani amalga oshirishda qat'iy qadamlar qo'yishi va strategik yondashuvni takomillashtirishi zarur. Bu esa, o'z navbatida, korxonalar global iqtisodiy muhitda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta'minlaydi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Odilovna O. G. et al. What is the state-of-the-art contribution of the higher education system to the digital economy: a systematic mapping study on changes and challenges //International Conference on Next Generation Wired/Wireless Networking. – Cham : Springer Nature Switzerland, 2022. – C. 423-431.
2. Ayubxon o'g M. U. et al. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA YOSHLAR: ZAMON TALABI // " YURT FAXRI". – 2025. – T. 1. – №. 1.
3. Nodirbek o'g'li A. B. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR IMKONIYATLARI //Modern education and development. – 2026. – T. 44. – №. 2. – C. 238-243.
4. Akbarova S. Ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llash vazifalari //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1.
5. Ikramiddinovich B. T. RAQAMLI ASRDA TA'LIM TRANSFORMATSIIYASI: YANGILANAYOTGAN TENDENSIYALAR, MUAMMOLAR VA INNOVATSION YECHIMLAR //Modern education and development. – 2025. – T. 40. – №. 5. – C. 121-126.